



KULOLCHILIK SAN'ATIDA ETNIK-MADANIY AN'ANALAR

Maxmudov A.O.

Andijon davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va musiqa ta'limi kafedrasida o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: xalq, dumaloq piyola, kosa, guldon, ko'za, mo'jaz, zargarlik, kundalik, usta.

Ключевые слова: народ, круглая чаша, чаша, вазон, кувшин, чудо, ювелирные изделия, дневник, мастер.

Key words: folk, flower pot, bowl, guldon, pitcher, moose, jewelry, diary, master.

РЕЗЮМЕ:

Maqolada xalq amaliy san'atining rivojlanish bosqichlari, hunarmand ustalarning o'zaro munosabatlari, san'ati va madaniyatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, kulolchilik maktablarining rivojlanishida Rishton kulolchilik maktabining tutgan o'rnini haqida yoritilgan. Kulolchilikda ishlab chiqarilgan, laganlar, dumaloq payola, kosa, guldon, ko'za, xumlar eng kattalaridan tortib eng mo'jazigacha ishlatishga qulay, shaklan esa nafis qilib ishlanishi kabi masalalar o'rganildi. Hunarmand ustalarning turli millat vakillari bo'lishlariga qaramay san'at sohasida umumiy bir yo'nalishda ish olib broganliklari, halqlar aro do'stlik rishtalarini mustahkamlash, shu bilan bir qatorda o'z san'atlarining avloddan avlodga o'tib, shu kungacha yetib kelishini ta'minlaganlik masalalari tatqiq etilgan va yoritilgan.

РЕЗЮМЕ:

В статье освещаются этапы развития народного прикладного искусства, взаимоотношения ремесленников, факторы, влияющие на развитие искусства и культуры, роль Риштанской Гончарной школы в развитии гончарных школ. Были изучены такие вопросы, как изготовление гончарных изделий, тарелок, круглых пайол, чаш, ваз, кувшинов, от самых больших до самых чудесных, удобных в использовании, а форма эlegantна. Обсуждались и освещались вопросы, связанные с тем, что мастера-ремесленники, несмотря на разные национальности, работают в одном направлении в области искусства, укрепляя узы дружбы между народами, а также обеспечивая, чтобы их искусство передавалось из поколения в поколение и дошло до наших дней.

SUMMARY:

The article covers the stages of development of folk applied art, the interaction of the Craftsman ustalam, the factors that influence the development of art and culture, the role of the Rishton School of pottery in the development of pottery schools. Issues such as pottery making, trays, round payola, bowls, guldots, pots, hums are easy to use from the largest to the most mojazi, and the shape is refined. The issues of artisan masters working in a common direction in the arts, despite the fact that they are people of different nationalities, strengthening the bonds of friendship between the Rings, thereby ensuring the arrival of their art from generation to generation and to this day are touched and illuminated.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Yangi O'zbekistonni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy tarqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir”[1] Darhaqiqat, yangi O'zbekistonimizni yangi bosqichda yangi g'oyalari, yangi kashfiyotlar va milliy qadriyatlar asosida barpo etishimizga barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Tasviriy san'at-bu go'zalliklar dunyosi. Uni tushunish va qabul qilishni qanday o'rganish mumkin? Buning uchun eng avvalo tasviriy san'atning ifodaviy tilini o'zlashtirish, uning turlari va janrlari haqida tushunchaga ega bo'lish va rangtasvir texnikasi va texnologiyasi haqida bilimlarni egallash lozim.

Shuning uchun ham tasviriy san'at o'qituvchisi o'z ish faoliyatida o'quvchilarga faqat san'atning nazariy asoslari va uning ifodaviy tilinigina o'rgatib qolmasdan, balki tasviriy san'at materiallari va asbob-uskunalari haqidagi ma'lumotlarni ham yetkazishi juda muhim.

Xalq an'alarini o'rganish va uning talqinlarini to'g'ri tahlil qilish doim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib kelgan. An'analarning yashovchiligini ta'minlash, talqinlarining ob'ektivligiga baxo berish, shu talqinlar orqali ulardan ma'naviy tarbiyalovchi vosita sifatida foydalanish muhim hisoblanadi. Bunda san'atning o'rni benixoyat katta chunki, badiiy ifodaning san'at janrlaridagi talqini unda ilgari surilgan g'oyalarning jozibadorligini oshirib, inson hissiyoti va shuurida go'zal tuyg'ular uyg'onishiga turtki bo'ladi. Tasviriy san'atda asarlar turli janrlarda tahlil qilingan, bugungi kun kulolchiligimizning yo'qolib ketmasligini, uning tasviriy san'atdagi talqinlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Yangi davrda esa uning tasviriy san'atdagi talqinlarini tahlil qilishning badiiy estetik prinsiplari vujudga keldi. Bu esa kulolchilikning tasviriy san'atdagi talqinlarini ilmiy o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xalq ongining teran qatlamlarida mo'jizaviy tarzda saqlanib qolgan, azaliy ustalar ijodi samarasi sifatida dunyoga kelgan amaliy san'at va hunarmandchilik an'analari hozirgi kulolchilik va to'qimachilik buyumlari, yog'och va ganch o'ymakorligi, zargarlik zeb-ziynatlari, kandakorlik va kashtachilikda o'z umrini davom ettirib kelmoqda.

Kundalik voqelikda jo'shqin o'zgarishlar yuz berayotgan bir sharoitda xalq amaliy san'ati an'alarining saqlanib qolinishi nafaqat an'anaviy san'at qonuniyatlari bilan uslubiy o'xshashlikning, shu bilan birga san'at asari bilan u yaratilgan davr, muayyan madaniy umumiylik, xalq xarakteri o'rtasidagi ichki aloqalarning izchilligini asoslaydigan keng madaniy-tarixiy umumlashmalarni qayd qilish zarurligini taqozo etadi.



Ulkan o'zgarishlar davrida avvalgi davrlar san'ati an'analariga murojaat qilinishi tasodifiy hol emas. Garchi O'zbekiston xalqlari etnogenezi va madaniy kelib chiqishi jarayoni, o'zaro ta'sirining butun to'liq manzarasini qayta tiklash lozim bo'lib, O'zbekiston san'atida o'tmish davrlar san'ati an'analariga murojaat qilish alohida dolzarblik kasb etmoqda. O'zbekistonning bugungi jamiyati ongli tarzda milliy madaniyatni saqlab qolish va ulami yanada boyitishni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston tarixidagi eng yorqin sahifa - Temuriylar davri hozirgi kunning o'ziga xos g'oyasi, millat ravnaqining rag'batlantiruvchi yuksak davlatchilik ramzi bo'lib qoldi. Bu san'atning asosiy turlaridan biri - me'morlikda yaqqol o'z ifodasini topdi. Keyingi yillarda barpo qilingan milliy uslubdagi mahobatli, hashamatli binolar nafaqat keng miqyosdagi qurilishlar bilan dong taratgan, balki Amir Temur davri bilan o'xshashlikni, shu bilan birga bizning davrimizga xos bo'lgan jo'shqinlikni ham o'zida mujassam qiladi.

Biroq, biz avvalo milliy me'morchilik bilan bir qator diqqat-e'tiborda turgan amaliy san'at xususida to'xtalish niyatidamiz. Amaliy san'at ustalariga o'rta asrlar merosi ancha yaqin, zero, o'tmish tajribasini meros qilib olishda ichki aloqa hali ham barhayotdir, chunki amaliy san'at va hunarmandchilik an'analari izchilligi bevosita ustozdan shogirdga o'tib keladi.

O'zbekiston hududida istiqomat qilgan turli etnik guruhlar o'rtasida tarixan qaror topgan aloqalar bir qator etnik-madaniy mintaqalarning tarkib topishiga olib kelgan, ularda ijtimoiy malakalar va hunarmandchilik an'analarning o'zaro bir - biriga ta'sir qilishi va singib borish jarayoni jadal kechgan.

Bu borada Farg'ona vodiysi va O'zbekistonning o'zbek hamda tojik aholisi birgalikda istiqomat qilgan markaziy tumanlari alohida ajralib turgan.

Qoraqalpog'istonda o'zbek, turkman, qoraqalpoq madaniy an'analarning o'zaro ta'siri ko'zga tashlanadi. Qayd qilish lozimki, amaliy san'atni o'rganishda nafaqat etnik, shu bilan birga u yoki boshqa etnik guruhlarining ajratib turadigan madaniy-xo'jalik omilini ham e'tiborga olish kerak. O'zbekiston san'atining rivojlanishi uchun o'troq aholi madaniyati bilan cho'lu dashtlar aholisi madaniyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'ziga xos imkoniyatlar yaratadi. Unda uchta tamoyil o'zaro bir-birini to'ldirib turgan: birinchisi-chorvador qabilalarning estetik g'oyalarini aks ettirgan, ikkinchisi birmuncha kengroq omma bilan bog'liq bo'lib, dehqonlar san'atini o'z ichiga olgan va nihoyat uchinchisi xukmdorlar va zodagonlarga xizmat ko'rsatgan. Ularning ichida sara san'at, yirik shahar markazlarida rivoj topib, islom dinining estetik qonun-qoidalarini o'zida mujassam etgan.



O'zbekistonda badiiy kulolchilik xalq amaliy san'atining ko'plab turlari ichida maxsus o'rinni egallaydi. O'zbek badiiy kulolchilik buyumlari hamisha o'ta noyob ta'sirchanligi va puxtaligi bilan xalq ijodining asl xususiyatlarini ifoda etib keladi.

Laganlar, dumaloq piyola va kosalar, guldon va ko'zalar, xumlar eng kattalaridan tortib eng mo'jazigacha ishlatishga qulay, shaklan esa nafis qilib ishlangan. Qadim zamonlardan beri omma orasida sopol buyumlarga talab katta. Ularning zo'r mahorat bilan yasalganligi, shaklining go'zalligi, dadil fantaziyaning uyg'unlashganligi, rang ishlatishdagi me'yor ajratib turadi.[2]

O'zbekistonning badiiy sopol buyumlari ikki tuga bo'linadi: biri - kuydirilgan, sirlanmagan qizg'ish sopol, ikkinchisi - sirlangan guldor sopol.

Keyingi 100-150 yil ichida O'zbekistonda kulolchilik markazlari aniq shakllandi. G'ijduvon, Shahrisabz, Samarqand, Toshkent, Rishton, Xorazm kabi mashhur kulolchilik markazlari shular jumlasidandir. O'tgan asrning oxirlariga kelib Farg'ona viloyatining Rishton, Quvasoy, Namangan viloyatining G'urumsaroy, Surxondaryo viloyatining Denov, Qoraqalpog'istonning Chimboy tumani kulollarining ishi keng tanildi va shuxrat qozondi.

Zamondosh ustalar ijodida etnik-madaniy an'analarning dolzarblashuvi yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi tarixan taqozo etgan ob'ektiv qonuniyatdir. Bundan oldingi davrlar san'ati turli etnik-madaniy ta'sirlarning bir-biriga singib ketishi va keyinchalik birgaligidan iborat bo'lib, bunday xususiyat, shubhasiz, O'zbekiston san'ati va madaniyatining bundan keyingi rivojiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Rishton - O'zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimgi markazlardan biri sanaladi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rishton aholisining deyarli hammasi kulollardan iborat edi. Farg'ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari, jumladan, G'urumsaroy, Chorku, Konibodom va shu kabi boshqa markazlar azaldan Rishton kulolchilik san'ati ta'sirida bo'lgan.

Ushbu tumanda har qanday turdagi buyumlarni yasash uchun yaroqli bo'lgan alohida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo'ldi. Qishg'ish - sarg'ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun hududida 1-1,5 metr chuqurlikda qatlam bo'lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatli mahalliy ustalarning uni O'zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda, oldindan tozalab va boshqa turdagi tuproqlarga aralashmagan holda ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi. Kulollar Rishton yaqinidagi tog'lardan (Gunchiroq, Chorku, Laklon, Haydarkon va boshqalar) har xil bo'yoqlar, kvartslı qum va olovbardosh gillarni qazib olishgan.



1960 yillarda yuqoridagi eslatib o'tilgan moviy sopol buyumlari ishlab chiqariladigan an'anaviy markazlar barham topa boshladi, cho'lda o'sadigan "gulvak" o'tidan olinadigan an'anaviy ishqorli sirga asoslangan ishlab chiqarish amalda to'xtab qoldi. Rishton kulolchilik zavodi Farg'ona maktabi uchun xos bo'lmagan qo'rg'oshinli sir bilan qoplangan sopol buyumlarni ishlab chiqarishga o'tdi. Boshqa joylarda bo'lgani singari Rishton kulolchiligida ham an'anaviy ishqorli sir o'rniga qalayli sir ishlatishga to'g'ri kelishi ustalardan yangi materiallar bilan ishlashni o'zlashtirib olishlari uchun vaqt talab qilar edi.

Ana shunday sharoitda San'atshunoslarning Butun Ittifoq konferentsiyasi (Farg'ona, 1974 yil) qabul qilgan moviy ishqorli sopol idishlari ishlab chiqarish an'alarini saqlab qolish haqidagi qarori amaliy ahamiyat kasb etdi. Ushbu qaror bakrcha ustalarga ma'qul tushdi. Ular sekin-asta oldingi ishlab chiqarishga qaytib, buyumlarni bezashning an'anaviy shakllari va usullarini yana qayta tiklay boshlashdi. Keyingi 20 yil ichida Rishton sopol an'anaviy badiiy va texnologik usullar asosida yana qayta tiklandi, ishqorli sir tayyorlash ham yo'lga qo'yildi. Hozirgi vaqtda bu yerda sopol idishlarning yapaloq (kosalar, laganlar) va uzun bo'yli (ko'zalar, xumlar) turlari ishlab chiqarilmoqda.

Ilgari ishlar ixtisoslashgan tarzda bajarilardi - yapaloq buyumlarni, ya'ni yapaloq va qisqa bo'yli shakllar yasovchi ustalar kosagar, baland, bo'yi cho'zilgan buyumlarni yasaydigan ustalarni - ko'zagar deyishgan. Hozir bunday tasniflash ilgarigi mohiyatini yo'qotmagan; ayrim ustalar I.Komilov, U.Ashurov, I.Komilov- kichigi ham yapaloq ham cho'zinchoq shaklli idishlarni yasashadi. Ayni paytda bir qator kulollar asosan, o'rta yosh avlod vakillari Sh.Yusupov, A.Nazirov, A.Usmonov va boshqalar ko'proq yapaloq idishlar - laganlar yasash bilan shug'ullanganlar. [3]

Rishtonlik kulollar ham avvalgi davrlar san'ati an'alariga murojaat qilinishi ham tasodif emas. Nafaqat Rishton balki, butun O'zbekiston xalqi etnogenezi va madaniy kelib chiqishi jarayoni, o'zaro ta'sirining to'liq manzarasini qayta tiklash lozim. O'zbekistonning bugungi jamiyati ongli tarzda milliy madaniyatni saqlab qolish va ularni yanada boyitishni amalga oshirmoqda.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda" Toshkent-2021. B-31
2. A. S. Morozova, H. V. Avedova, S. M. Maxkamova. Uzbekistan xalq san'ati. T.; 1977. 28-6.
3. Surayyo Aliyeva. Rishtonning moviy sopol. San'at -98. № 1-3, 34-bet.
4. M.K.Raximov. Xudojestvennogo keramika Uzbekistana. Darslik. Toshkent.1961– 249s.
5. A.Xakimov. Prikladnoe iskusstvo Uzbekistana. Traditsii i innovatsii. Tashkent. Yunesko. 2013. 211 b.
6. N.P.Navarro, M Piler. Dekorativnie keramiki, istoriya. Moskva. 2005. 204 b.
7. Marylin Scott. The potter's bible. New York.2010.Avenue Suite 2006.